



**O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari o’rtasida  
“Men oilamni saylovga targ‘ib etdim” mavzusida insholar tanlovi  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

- 1.1. O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari o’rtasida “Men oilamni saylovga targ‘ib etdim” mavzusida insholar tanlovi (keyingi o’rinlarda Tanlov deb yuritiladi) O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘yicha saylovoldi harakatlar doirasida tashkil etiladi.
- 1.2. “Men oilamni saylovga targ‘ib etdim” mavzusida insholar tanlovi 2021-yil – oktyabr oyida o’tkaziladi.
- 1.3. Tanlov O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi tomonidan o’tkaziladi.
- 1.4. Tanlov asosida talabalarining saylovga qanchalik tayyorgarligi shu bilan bir qatorda ularning ota-onalarinining ham saylovga qay darajada tayyorgarlik ko‘rayotganligi aniqlanadi.
- 1.5. “Men oilamni saylovga targ‘ib etdim” tanlovi jarayonida oilaviy muhitni yanada barqarorlashtirish hamjihatlikda qarorlarlarni oila davrasida muhokama qilish imkoniyatini yanada oshishiga xizmat qiladi.

**II. Tanlovdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar**

2. Qonun ustuvorligi, O’zbekistonda bo‘lib o’tadigan saylovda talaba yoshlarning ota-onalarining ishtirokini faol ta’minalash, bugungi islohotlarga daxldorlik hissini oshirish maqsadida “Men saylovga oilamni targ‘ib etdim” mavzusida insholar tanlovi bo‘lib o’tadi.
  - 2.1. Tanlovnin tashkil etishdan asosiy maqsad – jamiyatda O’zbekiston Respublikasi yoshlarning ota-onalarini bilan birgalikda ishtirokini ta’minalashni kengaytirish hamda ularning siyosiy madaniyatini oshirish, yoshlarning ota-onalarini saylov institutlariga ishonchini mustahkamlash hamda, talaba yoshlarning ota-onalarini jamiyatimizdagi barcha siyosiy jarayonlarda faol yetakchiliginini ta’minalash;
  - 2.2. Saylov qonunchiligi, saylov jarayonlaridagi o’zgarishlar, odil saylov tizimi va mexanizmini amalga oshirishdan iborat.

**III. Tanlovnin tashkil etish va o’tkazish**

3. Tanlovnin birinchi va ikkinchi bosqichini o’tkazish bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi rektori buyrug‘i bilan Tashkiliy qo’mita va soha professor-

o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar xay'ati tuziladi.

3.1. Talabalar tomonidan yo'naliishlar bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar kesimida tuzilgan hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

3.2. Tanlovnning uchinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovnning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hakamlar xay'ati tuziladi va tanlov g'oliblari Tashkiliy qo'mitaning yig'ilish bayoni orqali tasdiqlanadi. Xay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb etiladi.

3.3. Mazkur tanlov e'lon qilingan kundan boshlab va tanlovnning yakuni bo'yicha insho olish jarayonlari sanasi universitet rasmiy kanalida e'lon qilinadi.

#### **IV. Tanlov shartlari va baxolash mezonlari**

4. Insholar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi (ilmiy, rasmiy, badiiy kriteriyalariga mos va mavzu dolzarbligiga ko'ra);

ijodiy ishlarning stilistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi;

mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;

mavzuni yoritishda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi; mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalananligi;

mavzuga oid dolzarb masalalar, ularning yechimlari to'g'risida takliflar kiritilganligi;

mazkur insho uchun 10 ballgacha baho beriladi.

5. Ushbu shart yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar o'z fikrlarini yoritib berishlari kerak. Bu shart orqali talabanining ota-onalari saylovga qanday tayyorgarlik ko'rghanligini tekshirish maqsadida insho yoziladi.

#### **V. G'oliblarni taqdirlash**

6. Tanlov yakunida hakamlar hayati qaroriga ko'ra g'olib bo'lgan talabalar universitet rektori tomonidan Diplom va 1-o'rin uchun telefon; 2-o'rin uchun sport inventari hamda 3-o'rin uchun badiiy kitoblar bilan taqdirlanadi.